



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 8-iyun, № 114 (8737)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



ZAMONAVIY LOYIHALAR ASOSIDA BUNYOD ETILAYOTGAN SPORT INSHOOTLARI NAVQIRON AVLOD KAMOLOTIGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-iyun kuni poytaxtimizning Yakkasaroy va Yashnobod tumanlariga tashrif buyurib, jamoat xavfsizligi va sport sohalaridagi yangi obyektlar hamda mahallalarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi Dilbog' mahallasida ham bo'lib, aholi turmush sharoiti bilan yaqindan tanishdi.

Mahallada 5 ming 200 nafardan ortiq aholi yashaydi. 26 ta ko'p qavatli uy, maktab va bog'chalar, savdo shoxobchalari atrofi obod qilingan.

Yurtimizda har bir mahalla ixtisoslashuvidan kelib chiqib rivojlantirilmoqda. Dilbog'liklar, asosan, tadbirkorlik va hunarmandlik bilan shug'ullanadi. 15 ta savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchasi, bitta ishlab chiqarish korxonasi, ta'lim muassasalarida aholi doimiy ish bilan band.

O'tgan yili aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 13 ta loyihaga kredit ajratilgan. 300 ga yaqin fuqarolar yangi ishga joylashtirilgan. Yoshlarni kasbga o'rgatish uchun monomarkaz tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari mahalladagi qurilish va obodonlashtirish ishlari ko'zdan kechirdi.

O'zbekiston Futbol assotsiatsiyasi huzuridagi Toshkent shahar futbol akademiyasi shu mahallada joylashgan. Zamonaviy majmuada yopiq va ochiq sport maydonlari, nazariy mashg'ulot xonalari, yotoqxona, oshxona va kutubxona mavjud. Hozir bu yerda 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 154 nafar bola saboq olmoqda. Mashg'ulotlarga chet ellik mutaxassislar ham jalb qilingan. Stadionlar yoritish va tasvirga olish qurilmalari bilan jihozlangan.

Prezident akademiya tarbiyalanuvchilari va sport sohasi mas'ullari bilan suhbatlashdi.

Futbol bo'yicha qarorlarimiz, iqtidorli bolalarga e'tibor berganimiz tufayli o'zbek futboli ham jahonga chiqa boshladi. Yevropa jamoalarida legionerlarimiz ko'payapti. Yoshlarimiz Olimpiadaga yo'llanma oldi. Bu davomiy bo'lishi uchun endi mahallalarda futbolni rivojlantirish kerak. Qo'shimcha stadionlar qurib, uning ommaviylikni qo'llab-quvvatlash zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu mahalladagi suv sporti saroyining ta'miri ham ko'zdan kechirildi. Uni davlat-xususiy sheriklik asosida barqaror ishlatish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

Davlatimiz rahbari dastlab Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markazini borib ko'rdi.

Bu markaz O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi doirasida tashkil etilgan. Majmua mukammal ta'mirlanib va zamonaviy jihozlanib, shu yil martda ishga tushirilgan.

Markaz jamoat xavfsizligi jarayonlarini qamrab olgan yagona axborot makonidir. Bu yerda joylardagi vaziyat va xodimlarning ish-harakati raqamli texnologiyalar orqali tahlil qilib boriladi. Xususan, 10 mingdan ortiq profilaktika inspektorlarining faoliyati 6 ta yo'nalish bo'yicha nazorat qilinadi va baholanadi.

Bunda "Ye-Jamoat xavfsizligi", "Ye-Ijtimoiy vaziyat" kabi dasturlar, yo'l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlash xizmatlarining yagona axborot tizimlari hamda 6 mingdan ziyod "aqli" kuzatuv kameralari integratsiyasi qo'l keltirilmoqda. Shuningdek, markazda videoaloqa orqali profilaktika inspektorlari, yo'l patrul, post patrul va probatsiya xodimlari

uchun masofaviy o'quvlar o'tkaziladi. Ommaviy tadbirlarni modelashtirish orqali nstandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va tezkor choralar ko'rish o'rgatiladi.

Davlatimiz rahbari bu masalaga alohida e'tibor qaratib, soha xodimlari yuqori texnologiyalarni yaxshi bilishi lozimligini ta'kidladi.

Bugungi kunda barcha sohada sun'iy intellektning o'rni kengayib bormoqda. Insonlarga qulaylik yaratadigan dasturlar bilan birga kiberjinoyatchilik, firibgarlik usullari ham ko'paymoqda. Bunday jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va fosh etish uchun ichki ishlar xodimi undan-da ilg'or, ziyrak bo'lishi kerak.

Shu bois markazdagi uchrashuvga huquq-tartibot idoralari huzuridagi oliy o'quv yurtlari rektorlari taklif etildi. Ulardagi o'quv dasturlarini shu nuqtayi nazardan takomillashtirish, dual ta'lim tizimini joriy etish, darslar va ilmiy ishlarning hayot bilan hamnafasligini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Ichki ishlar vazirligida uchuvchisiz qurilmalarni qo'llash bo'yicha tuzilma tashkil etish vazifasi qo'yildi. Jinoyatchilik profilaktikasini kuchaytirish, ommaviy

tadbirlar xavfsizligini ta'minlash borasida qo'shimcha topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda Farmoni bilan tasdiqlangan jamoat xavfsizligi bo'yicha strategiyada 2025-yil yakuniga qadar tizimni raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish belgilangan. Tashrif chog'ida davlatimiz rahbariga shu borada axborot berildi.

Bu jarayon uch bosqichda amalga oshirilmoqda.

Birinchii bosqichda muammolar o'rganilib, ikkinchisida shu asosida mutaxassislar va dasturlar tayyorlandi. Jumladan, 66 ta axborot tizimi va modullari ishlab chiqildi. Ulariga vazirlik va idoralarning 77 ta hamda Ichki ishlar vazirligining 25 ta axborot tizimi integratsiya qilindi. Jamoat xavfsizligi bo'linmalari xodimlari 18 mingdan ziyod planshetlar bilan ta'minlandi hamda raqamli qurilmalardan samarali foydalanish bo'yicha o'qitildi.

Natijada 155 ta hisobot, 37 ta ish yuritish sohasi, yuzga yaqin qaydnomalar va yig'ma materiallar raqamlashtirildi. Buning hisobiga 213 milliard so'm tejashiga erishilgan.

Endi uchinchi bosqichda Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi tashkil etib, sohaga sun'iy intellektning keng joriy qilish, uskunalar mahalliyashtirish kabi maqsadlar qo'yilgan.

Shu yerda ichki ishlar tizimida qo'llanilayotgan zamonaviy texnika va anjomlar namoyish qilindi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida bunyod etilgan suv sporti saroyini ko'zdan kechirdi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga qarashli mazkur majmua suv sporti rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida qurilgan. E'tiborlisi, bu yerda ham professional sportchilar, ham havaskorlar uchun sharoit yaratilgan.

50 metrlil basseyn va 500 o'rinni tomoshagohga ega katta zalda xalqaro miqyosdagi musobaqalar, terma jamoamizning o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish uchun zamonaviy sharoitlar bor. Balandlikdan sakrash va kichik havzalarda bolalar suv sportini o'rganadi.

Majmuada yoshlar, mehnat jamoalari va faxriylar salomatliklarini mustahkamlashi mumkin. U bir vaqtning

o'zida 100 nafar, bir kunda mingdan ziyod aholiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega.

Ikkinchi qavatda ma'muriyat va murabbiylar xonasi, konferensiya zali, trenajyor xonasi hamda sport sharhlovchilari uchun maxsus xonalar joylashgan.

Majmua negizida suv sporti maktabi tashkil etilgan. Davlatimiz rahbari bu yerda yosh sportchilarning mashg'ulotlarini kuzatdi. Ularning intilishlarini qo'llab-quvvatlab, ulkan yutuqlarga ruhlantirdi.

Bu yil Parij shahrida o'tkaziladigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidan 13 nafar sportchi litsenziyani qo'lga kiritgan. Prezidentimiz mazkur sportchilar va murabbiylar bilan suhbatlashdi.

Shaharu qishloqlarda sport majmualari qurib, uni ommalashtirishga katta e'tibor beryapmiz. Chunki sport bilan shug'ullangan yoshlar kam bo'lmaydi, sog'lom bo'ladi, bolalariniyam shunday tarbiyalaydi. Sizdek professional sportchilar bu yo'lda yoshlarga ham ixtiyor, ham o'rnak bo'ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

"Turkiye" gazetasi:

YANGI O'ZBEKISTON BUTUN DUNYONING PORLOQ YULDUZIGA AYLANIB BORMOQDA

Turkiyaning yetakchi "Turkiye" ("Turkiya") gazetasida "O'zbekiston — Turkiya munosabatlari yanada mustahkamlanadi" sarlavhali maqola chop etildi.

Turkiya Buyuk millat majlisidagi O'zbekiston bilan parlamentlararo do'stlik guruhi raisi Osman Mesten qalamiga mansub mazkur maqolada ikki mamlakat o'rtasidagi tarixiy rishtalar, savdo-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qayd etilgan.

E'tirof

Nashrda 6-iyun kuni qardosh mamlakat — O'zbekiston bilan munosabatlari jihatidan nihoyatda samarali va umumi kun bo'lgani, ya'ni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan kelgani xabar qilingan. Ta'kidlanganidek, tashrif davomida O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari raisligida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

"Bugungi O'zbekiston biz ota yurt, deb ta'riflaydigan

Movarounnahr zaminidir. Milodiy X asrdan boshlab ajdodlarimiz bu yerlardan ko'chib, Anadoluni o'zlari uchun vatan sifatida tanlagan. Shunday bo'lsa-da, ajdodlarimiz o'ta yurtda qolgan qardoshlarimiz bilan aloqalarini hech qachon uzmagani. Ushbu ulug' zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar nafaqat Osiyodagi, balki butun dunyodagi turkiy xalqlar tamadduniga katta hissa qo'shgan insonlardir", deb yozgan muallif

Maqolada yozilishicha, bugungi O'zbekiston zaminidan Turkiyaga kelganlar bu yerda katta madrasalar tashkil etib,

muhim tadqiqot ishlari olib borgan, yoshlarga ilm o'rgatgan. Hozirgi kunda Anadoluda Samarqandiy, Toshkandiy va Buxoriy nomlari bilan bog'liq 2500 dan ortiq qabrlar bor. Ulardan ikkitasi Bursadagi Amir Sulton va Salohiddin Buxoriy qabrlaridir.

"2016-yilda Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan keyin O'zbekiston ochiqlik sari yuz tutdi va yangi taraqqiyot siyosatini amalga oshira boshladi. Mamlakatdagi o'zgarish va yangilanish jarayoni yangi O'zbekiston nomining tez-tez tilga olinishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonda Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy taraqqiyotga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi 7 yilda ushbu mamlakatga

tez-tez tashrif buyurgan inson sifatida aytishim kerakki, yangi O'zbekiston, haqiqatan ham, qisqa vaqtga katta yo'lni bosib o'tdi", deb qayd etgan Turkiya parlamenti vakili.

Ma'lum qilinganidek, so'nggi yillarda yangi O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb ikki baravar o'sdi. Mamlakat 2023-yilni 6 foizlik o'sish bilan yakunladi va bu yil ham xuddi shunday muvaffaqiyatga erishishi kutilmoqda. Inflyatsiya darajasi 9 foizga tushgan. Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari ham muttasil ortib bormoqda. Valyuta bozori va oltin valyuta zaxiralari barqarorligi saqlanib kelinmoqda. Oxirgi yillarda 60 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb etishga muvaffaq bo'ldi. O'tgan yili xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar oshdi.



Delegatsiyamiz TurkPAning XIII yig'ilishida ishtirok etdi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasining (TurkPA) Boku shahrida "Turk dunyosi uchun "yashil" uqlar: "yashil" kun tartibini amalga oshirishda parlamentlarning roli" mavzuida o'tkazilgan XIII yalpi majlisida ishtirok etdi.

Muloqot

Tadbirda TurkPaga a'zo davlatlar parlamentlari rahbarlari, TurkPA kuzatuvchi a'zolari delegatlari,

xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi.

Ishtirokchilar "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlash, "yashil" energiyani joriy etish, iqlim o'zgarishiga qarshi

O'zbekiston ilk bor XMT Ma'muriy kengashi a'zoligiga saylandi

Ma'lumki, so'nggi yillarda yurtimizda inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalash, mehnat munosabatlari xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada bolalar mehnati va majburiy mehnatga to'la barham berildi. Ayni chog'da munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish, xususan, xalqaro mehnat, ishlab chiqarish, texnik va ekologik standartlarni keng tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xushxabar

Bu boradagi sa'y-harakatlar xalqaro hamjamiyat, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan e'tirof etib kelinayotgani diqqatga

sazovor. Buni qator xalqaro anjumanlarda O'zbekiston qisqa muddatlarda yuqori natijaga erishgan mamlakat sifatida boshqa davlatlar uchun o'rnak sifatida ko'rsatilayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

Kecha yana bir xushxabar yetib keldi. Jeneva shahrida davom etayotgan Xalqaro mehnat konferensiyasining 112-sessiyasi doirasida bo'lib o'tgan XMT Ma'muriy kengashi a'zoligiga saylovlarda Yevropa hududidan eng ko'p ovoz

to'plab O'zbekiston tarixda ilk marotaba kengash a'zoligiga saylandi.

Bu — Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, mehnat munosabatlari tizimini takomillashtirish yuzasidan yangi taklif va g'oyalarni ishlab chiqilishida bevosita O'zbekistonning ham faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyat deganidir.

"Xalq so'zi".

Delegatsiyamiz TurkPANing XIII yigʻilishida ishtirok etdi

Ayni chogʻda yigʻilish mavzusi dolzarbligini taʼkidlab, parlamentlar ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, tegishli qoʻmitalar oʻrtasidagi hamkorlikni taʼminlash zarurligiga ishtirokchilar eʼtiborini qaratdi. Birgalikda tadqiqotlar oʻtkazish va ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, hukumatlarga taqdim etish amaliyotini keng yoʻlga qoʻyish yuzasidan ham fikrlarini bildirdi.

Yalpi majlisda qayta tiklanadigan energetika sohasidagi imkoniyatlar va ekologik toza energiya resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati koʻrib chiqildi. Bu anʼanaviy energiya resurslariga qaramlikni kamaytirish va ekologik nuqtayi nazardan ijobiy natijalarga erishishga xizmat qilishi alohida taʼkidlandi.

Ishirokchilar tomonidan energiya xavfsizligi masalasini hal etishda "yashil" energiyadan foydalanish hamda ilgʻor texnologiya va innovatsiyalarni qoʻllashni ragʻbatlantirish boʻyicha davlatlardagi ijobiy tajribalar keng muhokama qilindi.

Bu boradagi hamkorlikni kuchaytirishga oid takliflar ilgari surildi hamda birgalikda amalga oshiriladigan choralar boʻyicha fikr almashildi.

TurkPA XIII yalpi majlisi yakunlari boʻyicha Boku deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mazkur nufuzli anjuman doirasida Senat Raisi ishtirokida bir qator uchrashuvlar ham oʻtkazildi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Malayziya parlamentlari Senati Raisi oʻrinbosari Nur Jazlan Mohamad boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Tomonlar Oʻzbekiston — Malayziya oʻrtasidagi doʻstlik va koʻp qirrali sheriklik munosabatlari kengayishidan, xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniy-gumanitar va turizm sohalaridagi aloqalarni yanada kuchaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi.

Aynan bu boradagi aloqalarning odimlashida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Malayziya Bosh vazirining oʻzaro ishonch va konstruktiv ruhdagi munosabatlari muhim ahamiyat kasb etayotgani alohida taʼkidlandi.

Uchrashuvda taʼlim yoʻnalishida qoʻshma dasturlar boʻyicha ishlash, mashinasozlik va murakkab texnologiyalar sohalarida kadrlar malakasini oshirish, ziyorat turizmi loyihalarini ishga tushirish yuzasidan fikr almashildi.

Parlamentlararo hamkorlik masalalariga alohida toʻxtalib, soʻnggi yillarda oʻzaro muloqot va tashriflar faollashib borayotgani va uni yanada kengaytirish uchun doʻstlik guruhlari faoliyatini kuchaytirish lozimligi urgʻulandi.

Shuningdek, parlament nazorati doirasida oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosini taʼminlashga koʻmaklashish zarurligi taʼkidlandi.

Muloqot yakunida Oʻzbekiston va Malayziya Senatlari hamkorligiga oid tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish, unda amaliy harakatlar, yaʼni qonun ijodkorligi, parlament nazorati, qoʻmitalar hamkorligi, hududlarni rivojlantirish kabi masalalarni aks ettirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Raisi Saxiba Gafarova bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Unda tomonlar parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilildi.

Xususan, yuqori darajadagi ikki tomonlama kelishuvlarning amalga oshirilishini taʼminlash, jumladan, parlamentlarning savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi qoʻshma loyihalarini huquqiy jihatdan taʼminlash masalalariga eʼtibor qaratildi.

2022-yilda parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha Toshkentda imzolangan amaliy harakatlar rejası, yaʼni "Yoʻl xaritasi" ijrosi toʻliq taʼminlangani alohida qayd etildi.

Uchrashuv yakunida oʻzaro hamkorlikni yuqori bosqichga koʻtarishga qaratilgan 2024-2025-yillarga moʻljallangan yangi "Yoʻl xaritasi" ham imzolandi.

Ushbu hujjat parlament aʼzolari oʻrtasida tashrif almashish orqali oʻzaro munosabatlarni chuqurlashtirish va qonun ijodkorligi faoliyatini rivojlantirishni koʻzda tutadi. Undan ilm-fan, taʼlim, sogʻliqni saqlash, turizm, ekologiya va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish boʻyicha hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish kabi yoʻnalishlar ham oʻrin olgan.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Vengriya Milliy Assambleyasi vitse-spikeri Marta Matray bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Muzokara davomida Oʻzbekiston va Vengriya hamkorligining muhim yoʻnalishlari koʻrildi. Siyosiy muloqotni faollashtirish, parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni va ijtimoiy sohalaridagi almashinuvlarni yanada kengaytirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Tomonlar iqtisodiyotning turli yoʻnalishi, xususan, avtomobilsozlik, farmatsevtika, qurilish, qishloq xoʻjaligi va turizm sohalarida qoʻshma loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiy diplomatiyani izchillik bilan rivojlantirish muhimligini qayd etishdi.

Shuningdek, taʼlim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ikki mamlakat yetakchi oliy oʻquv yurtlari ishtirokida qoʻshma taʼlim dasturlarini joriy etish masalalariga eʼtibor qaratildi.

Shubhat chogʻida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish, ularni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish masalalari tomonlarning diqqat markazida boʻldi.

Munosabatlarni mustahkamlashning amaliy mexanizmi sifatida esa parlamentlararo doʻstlik guruhlari faoliyatini kuchaytirishga kelishib olindi.

"Xalq soʻzi".

Oʻzbekiston va Turkiya:

ISHONCHLI HAMKOR VA STRATEGIK SHERIK

Turkiya Oʻzbekiston mustaqilligini birinchi boʻlib tan olgan ishonchli hamkor va strategik sherik davlat hisoblanadi. Ayniqsa,oxirgi yillarda ikki mamlakat aloqalari oʻzining yuqori pallasiga koʻtarildi. Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu mamlakatga amalga oshirgan galdagi tashrifi munosabatlrimiz tarixida yangi sahifalar ochdi, desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Negaki,mazkur tashrif davomida koʻplab hujjatlar imzolandi hamda yangi kelishuvlarga erishildi.

Oliy Majlis Senati aʼzolari oʻzlarining bu boradagi fikrlarini bayon etdi.

Aks sado

Bahodir TOJIYEV,
Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi raisi:

— Sir emas, keyingi yillarda har ikkala davlat yetakchilarining saʼy-harakatlari bilan tarixi, qadriyatlari, dini, maʼnaviyati, maqsad-muddaosi bir boʻlgan xalqlarimiz yanada yaqinlashdi. Shu bois bugun bir-birimizni tugʻishgan qardoshimizdek koʻramiz. Ularning yutuqlaridan behad quvonamiz, tashvishini esa oʻzimizniki deb bilamiz.

Strategik sherikligimiz asosida esa bugungi va kelgusi rejalarimiz oʻz mujassamini topgan.

Aytish joizki, Prezidentimizning tashrifi doirasida Anqara shahrida ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi oʻtkazildi. Va aytish joizki, bu yigʻin tarixiy ahamiyatga molik voqeilik boʻldi. Negaki, mazkur tadbirida Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari koʻrib chiqildi, yakunda esa salmoqli kelishuvlarga erishildi.

Unda amaliy hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat, "yashil" energetika, elektrotexnika, toʻqimachilik, farmatsevtika tarmoqlari, qishloq xoʻjaligi va boshqa yoʻnalishlarda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida eʼtibor qaratilganligini taʼkidlash zarur.

Xususan, faol madaniy-gumanitar almashinuvni izchil davom ettirish masalalari uchun, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat, "yashil" energetika, elektrotexnika, toʻqimachilik, farmatsevtika tarmoqlari, qishloq xoʻjaligi va boshqa yoʻnalishlarda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida eʼtibor qaratilganligini taʼkidlash zarur.

Xususan, faol madaniy-gumanitar almashinuvni izchil davom ettirish masalalari uchun, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat, "yashil" energetika, elektrotexnika, toʻqimachilik, farmatsevtika tarmoqlari, qishloq xoʻjaligi va boshqa yoʻnalishlarda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida eʼtibor qaratilganligini taʼkidlash zarur.

Uchrasuvda taʼlim yoʻnalishida qoʻshma dasturlar boʻyicha ishlash, mashinasozlik va murakkab texnologiyalar sohalarida kadrlar malakasini oshirish, ziyorat turizmi loyihalarini ishga tushirish yuzasidan fikr almashildi.

Parlamentlararo hamkorlik masalalariga alohida toʻxtalib, soʻnggi yillarda oʻzaro muloqot va tashriflar faollashib borayotgani va uni yanada kengaytirish uchun doʻstlik guruhlari faoliyatini kuchaytirish lozimligi urgʻulandi.

Shuningdek, parlament nazorati doirasida oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosini taʼminlashga koʻmaklashish zarurligi taʼkidlandi.

Muloqot yakunida Oʻzbekiston va Malayziya Senatlari hamkorligiga oid tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish, unda amaliy harakatlar, yaʼni qonun ijodkorligi, parlament nazorati, qoʻmitalar hamkorligi, hududlarni rivojlantirish kabi masalalarni aks ettirishga kelishib olindi.

Qoʻshma deklaratsiya va strategik sheriklik istiqbollari

Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarning tarixiga nazar tashlasak, unda mamlakatimiz mustaqilligini birinchi boʻlib tan olgan davlat aynan Turkiya ekanini koʻrishimiz mumkin. Yaqin yillar ichida mamlakatlarimiz oʻrtasidagi keng qamrovli strategik sheriklikning yoʻlga qoʻyilishi, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarning jadal tus olishi hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqdi, desak, yangilishmaymiz.

Oʻzbekistonning keyingi yillarda jahon maydoniga dadil qadamlar bilan kirib borgan hamda dunyo boʻylab katta obro-eʼtiborga sazovor boʻlgan Turkiya mamlakati tomonidan yakdillik bilan qoʻllab-quvvatlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻanning taklifiga binoan ushbu mamlakatga rasmiy tashrif, shubhasiz, ikki tomonlama munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi.

Turkiya davlati rahbari bilan boʻlib oʻtgan tor doiradagi muzokaralar chogʻida ikki mamlakat oʻrtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari yanada kengaytirish, koʻp qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Qayd etish joizki, Turkiya va Oʻzbekiston oʻrtasida umumiylilik koʻ. Ikkala mamlakat turkiy tilda gaplashadi, bitta dinga eʼtiqod qiladi, anʼanalari bir-biriga oʻxshash, azaliy doʻstlik va madaniy aloqalar mustahkam odat tusiga kirgan.

Soʻnggi yillarda ikki davlat oʻrtasida koʻp qirrali strategik sheriklik va taraqqiyot davri boshlandi. Bu parlamentlararo munosabatlarda ham yaqqol namoyon boʻlmoqda. Binobarin, 2017-yil oktabrda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik boʻyicha parlamentlararo guruhi tashkil etildi.

bosqichga koʻtarishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Odiljon IMINOV,
Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi:

— Oʻzbekiston va Turkiyaning siyosiy hamda parlamentlararo aloqalari, madaniy-gumanitar almashinuvlari jadal rivojlanmoqda, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik faollashmoqda.

Davlatimiz rahbarining bu galgi rasmiy tashrifi ana shu aloqalarga yangicha surʼat berishi aniq. Buni tashrif doirasida kechgan muhim voqealar va imzolangan hujjatlar ham tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, tashrif doirasida davlatlarimiz hamda xalqlarimiz uchun manfaatli boʻlgan koʻplab muhim tarixiy hujjatlar imzolandi. Jumladan, Prezidentlar Keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish toʻgʻrisida qoʻshma deklaratsiyani imzoladilar.

Qolaversa, ikki davlat yetakchilari huzurida koʻp qirrali sheriklikning koʻplab sohalarini qamrab olgan 19 ta hujjat qabul qilindi.

Shularga mos ravishda imtiyozli savdo va energetika bozorini tartibga solishga oid ikki tomonlama hujjatlar hamda qishloq xoʻjaligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish boʻyicha chora-tadbirlar rejası qabul qilindiki, bularning barchasi, pirovardida Oʻzbekiston va Turkiya xalqlari iqtisodiy-ijtimoiy istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuhrat CHOʻLLIYEV,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi oʻrinbosari:

— Chindan ham, Prezidentimizning Turkiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi koʻplab sohalaridagi kelishuvlar hamda hamkorlik tadbirlariga boy kechganligi bilan alohida ajralib turdi.

Masalan, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar, taʼlim-fan, tibbiyot, xavfsizlik, mudofaa va qonunchilik yoʻnalishlaridagi



sheriklik masalalari keng muhokama qilindi.

Shu oʻrinda, oliy professional va texnik taʼlim sohasida hamkorlikni rivojlantirish, teatr festivallari va madaniyat haftaliklarini oʻtkazish, birgalikda tarixiy filmlar suratga olish va madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish sohalarida hamkorlikni kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilganligini taʼkidlab oʻtmoqchimiz. Negaki, bu sohalaridagi aloqalar xalqlarimizni yanada bir-biriga yaqinlashtirishda muhim oʻrin tutadi. Qolaversa, qadriyatlarimiz va madaniyatimiz turk xalqi uchun ham begona emas, bu borada mushtarakliklar judayam koʻp. Shu bois uchrashuv davomida mazkur yoʻnalishdagi tadbirlar tashkil etildi. Misol tariqasida, Prezidentlarning oʻz oilalari hamrohligida Turkiya xalq amaliy sanʼati va taomlari koʻrgazmasiga tashrif buyurganini keltirish mumkin.

Koʻrgazmada xalq ijodiy jamoalarining teatrlashtirilgan chiqishlari namoyish etildi. Ayni chogʻda madaniy almashinuvlar qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va doʻstligini mustahkamlashda muhim oʻrin tutishi alohida eʼtibor etildi.

Huquqshunos sifatida shuni taʼkidlamoqchimanki, tashrifning eng muhim va tarixiy qismi, bu — hamkorlikning barcha yoʻnalishini chuqurlashtirishga qaratilgan deklaratsiyaning qabul qilinishi hamda ikki davlat rahbarlari boshchiligidagi Oʻzbekiston — Turkiya Ishbilarmonlar kengashi tashkil etilishi boʻldi. Bunga nafaqat biz, balki xalqaro kuzatuvchi va mutaxassislar ham eʼtibor qaratmoqda.

Yana bir muhim voqeilik sifatida esa Prezidentimizning "Turkiya Respublikasi nishoni" bilan taqdirlanishini keltirib oʻtish joiz. Chunki bu Prezidentimiz timsolida butun oʻzbek xalqiga koʻrsatilgan yuksak hurmat va ehtirom ifodasidir.

Umuman, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga ushbu rasmiy tashrifi ikki davlat oʻrtasidagi rishtalarni yanada mustahkamlashi bilan ulkan ahamiyatga ega.

"Xalq soʻzi".

“Turkiye” gazetasi:

YANGI OʻZBEKISTON BUTUN DUNYONING PORLOQ YULDUZIGA AYLANIB BORMOQDA

Yangi Oʻzbekiston 90 dan ortiq davlatlar, jumladan, Turkiyaga ham amal qilayotgan vizasiz rejim tufayli turizm sohasida oʻz nomini yuksaltirmoqda. Shunday qilib, buyuk va chuqur tarixiy poydevorlardan kuch olib, yuksalish va rivojlanishni maqsad qilgan mamlakat nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoning porloq yulduziga aylanib bormoqda.

Muallif, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning maʼnaviyat sohasidagi ulkan tashabbuslariga eʼtibor qaratgan. “Bugungi kunda Oʻzbekistonda davlat rahbari tashabbusi bilan uchinchi Renessans gʻoyasi amalga oshirilmoqda. Maʼlumki, koʻpchilik tarixchilar Imom Buxoriy, Xorazmiy kabi allomalar yetishib chiqqan X-XI asrlarni birinchi Renessans, Alisher Navoiy va Mirzo Ulugʻbek kabi buyuk shaxslar yetishib chiqqan XV asrni ikkinchi Renessans davri deb taʼriflaydi. Bugun esa yangi Oʻzbekiston yetakchisi uchinchi Renessans gʻoyasini ilgari surmoqda. Ushbu maqsadga erishish yoʻlida mamlakatda keng koʻlamli ishlar boshlab yuborilgan. Oʻzbekiston yoshlarini zamonaviy bilim va mutaxasssliklarni egallashi uchun koʻplab loyiha hamda dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, bugun oʻzbek yoshlari oʻz yurti va dunyoning eng nufuzli oliy oʻquv yurtlarida tahsil olmoqda. Bu boradagi imkoniyatlar izchil kengaytirilmoqda”, deb taʼkidlagan Turkiya Buyuk millat majlisi aʼzosi.

Maqolada Oʻzbekistonda boshlangan yangilanishlar jarayoni Turkiya bilan munosabatlarga ham chuqur taʼsir koʻrsatgani urgʻulangan. Muallif Prezidentlar Rejep Tayyip Erdogʻan va Shavkat Mirziyoyev oʻrtasida nihoyatda yaqin va samimiy munosabatlar oʻrnatilganini eʼtirof etgan. Davlat rahbarlarimiz bir-birlariga "qardoshim" deb murojaat qilishadi, deyiladi nashrda. Bu holat, albatta, mamlakatlarimizning barcha muassasa va tashkilotlari oʻrtasidagi munosabatlarga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

“Shu oʻrinda, mamlakatlarimiz parlamentlari oʻrtasida ham namunaviy aloqalar mavjudligini alohida taʼkidlamasam boʻlmaydi, — deydi deputat. — Shu yil 22-may kuni Turkiya Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya bilan Oʻzbekistonga qilgan tashrifimiz parlament diplomatiyani rivojlantirish nuqtayi nazaridan juda foydali boʻldi. Delegatsiyamiz Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi. Shuningdek, Oʻzbekiston Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi rahbariyati bilan muhim uchrashuvlar oʻtkazildi. Ikki mamlakat parlamentlararo aloqalarini yanada rivojlantirish, parlamentlardagi doʻstlik guruhlari ishini faollashtirish, tegishli qoʻmitalar oʻrtasida hamkorlikni yoʻlga qoʻyish boʻyicha kelishib oldik”.

Maqola xulosasida, “Men Turkiya — Oʻzbekiston parlamentlararo doʻstlik guruhi raisi sifatida faoliyat yuritir ekanman, bu zamimga koʻp marotaba borish inkoniga ega boʻldim. Lekin har safar borganimda oʻzim uchun yangi narsalarni kashf etaman. Oʻzbekiston tarixiy qadriyatlarga sobit qolgan dahol jahon sivilizatsiyasiga hissa qoʻshish kabi muhim vazifalarni halli ham davom ettirmoqda. Men ham ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish yoʻlida bor bilim va gʻayratimni safarbar qilishda davom etaman”, deb yozgan Osman Mesten.

“Dunyo” AA.
Anqara

TARIXIY ILDIZLARIMIZ BIR, ORZU-INTILISHLARIMIZ MUSHTARAK

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻanning taklifiga binoan 6-iyun kuni ushbu davlatga rasmiy tashrifi koʻp qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish bilan birga,mamlakattar oʻrtasidagi sheriklik va doʻstlik munosabatlariada yangi sahifa ochdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ushbu tashrifning ahamiyati, keyingi yillarda tobora mustahkamlanib borayotgan ikki davlat munosabatlari haqida oʻz fikrlarini bildirdi.

Joriy yil may oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Turkiya parlamenti Spikeri Numan Kurtulmush bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvda shu narsa taʼkidlandiki, ikki davlat birlashib, oʻz aloqalari va hamkorligini yanada rivojlantiradigan boʻlsa, barcha turkiy mamlakatlarning tinchligi va farovonligiga hissa boʻlib qoʻshiladi.

Tabiiyki, barcha tarmoqlar qatori taʼlim sohasidagi aloqalar ham kengayib bormoqda. Xususan, Turkiyaning oliy taʼlim muassasalarida 300 nafar oʻzbekistonlik talaba tahsil olyapti.

Oʻzaro muzokaralar chogʻida ikki davlat oʻrtasida til birligini taʼminlashga erishish, madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirish, qoʻshni mamlakatlarning tarixiy sohadagi ilmiy tadqiqotlarini yaratish borasidagi hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish toʻgʻrisida kelishib olangani diqqatga sazovor. Ayniqsa, Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi yakunida ikki mamlakat rahbarlari Keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish toʻgʻrisida qoʻshma deklaratsiyani imzolagani ushbu tashrifning eng muhim jihatlaridan biri boʻldi, desak, ayni haqiqat.

Oliy mukofot — eʼtibor va eʼtirofning amaliy ifodasi

Mavjuda HASANOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Keyingi yillarda ikki mamlakat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli davlatlararo munosabatlarda yangi davr boshlandi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar, turizm va boshqa sohalaridagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Bugungi kunda koʻp asrlik doʻstona aloqalarga sodiq qolgan holda Oʻzbekiston va Turkiya ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga koʻtarishda dadil qadamlar tashlamoqda.

Barcha sohalar qatori parlamentlararo munosabatlar ham yangi bosqichga chiqayotganini alohida qayd etish joiz. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik boʻyicha parlamentlararo

doʻstlik guruhi aʼzosi sifatida hamkasblarimiz bilan doimiy muloqot qilib, oʻzaro tajriba almashib kelmoldamiz.

Qonunchilik palatasi deputatlarining Turkiya davlatida boʻlib, turli forumlar va tadbirlarda ishtirok etib kelayotgani ham har ikki mamlakat parlamentlari oʻrtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishiga xizmat qilmoqda.

Taʼkidlash joizki, davlatimiz rahbarining Turkiyaga rasmiy tashrifi ikki mamlakat xalqlari farovonligi yoʻlida samarali hamkorlikning yangi istiqbollari oichishga xizmat qilishi muqarrar.

Xususan, Anqara shahrida Prezidentlar raisligida ilk marotaba boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston — Turkiya Ishbilarmonlar kengashining birinchi yigʻilishi ham har tomonlama muvaffaqiyatli boʻldi, deyish uchun toʻla haqlimiz.

Tadbirkorlar bilan boʻlib oʻtgan bunday formatdagi muloqotda hamkorlikning istiqbolli yoʻnalishlari belgilanib, avvalo, investitsiyaviy sheriklik va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish taklif etildi. Ayniqsa, Oʻzbekiston — Turkiya sanoat klasterini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishilgani eʼtiborga molik. Shubhasiz, ushbu sanoat zonasi ikki mamlakat oʻrtasida amaliy hamkorlikning lokomotiviga aylanadi.

Prezidentimizning qardosh mamlakatning oliy davlat mukofoti — “Turkiya Respublikasi nishoni” bilan taqdirlanishi xalqlarimiz oʻrtasidagi koʻp asrlik doʻstlik rishtalari, ikki tomonlama koʻp qirrali munosabatlar butunlay yangi bosqichga chiqqanining eʼtirofi boʻldi, desak, mubolagʻa emas.

Ishonchli aloqalar yanada mustahkamlanadi

Gulruh AGZAMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Keyingi yillar misolida aytadigan boʻlsak, Oʻzbekiston — Turkiya munosabatlardagi ochqlik, oshkoralik, ishonch va samimiyatni sezmaslikning iloji yoʻq. Ikki kuchli liderning oʻz davlati tinchligi va ravnaqi yoʻlidagi jasorati, qatʼiyati, strategik masalalardagi hamkorligi dunyodagi bugungi qatlis vaziyat, davlatlararo ishonchsizlik munosabatlari keskinlashuvi jarayonida yanada yaqqol sezilmoqda.

Taʼkidlash joizki, Prezidentimizning Turkiyaga rasmiy tashrifi dasturida ikki mamlakatning yetakchi korxonalari va kompaniyalari rahbarlari

bilan uchrashuvlar, keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash, koʻp qirrali hamkorlikni, avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarida chuqurlashtirish masalalarini muhokama qilish oʻrin olgan edi.

Aytish mumkinki, bu galgi tashrif juda qizgʻin va natijador oʻtganini OAV orqali kuzatib turdik. Bugungi kunda ikki davlatning oʻzaro hamkorligi samarasi yangi Oʻzbekiston inshootlarida, sanoati, savdosi, logistika, turizm, qishloq xoʻjaligi va boshqa yoʻnalishlaridagi yutuqlarda koʻzga yaqqol tashlanmoqda. Xususan, soʻnggi yillarda oʻzaro savdo hajmi 1,5 barobarga, oʻqoshma korxonalar soni 2 barobarga, Oʻzbekiston iqtisodiyotiga turk investitsiyalari hajmi 2,5 barobarga oshdi. Ikki davlatning yirik shaharlari oʻrtasida haftasiga 90 ta parvoz amalga oshirilmoqda, Turkiyadan kelayotgan turistlar oqimi uch barobarga koʻpaydi.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekistonda bir qator yetakchi turk kompaniyalari tomonidan 100 dan ortiq loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani diqqatga sazovor.

Shuningdek, si

JAVOBGARLIKNI BELGILASHGA DOIR NORMALAR MUSTAHKAMLANMOQDA



Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi majlisi oʻtkazildi.

Unda senatorlar, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari raislari, ekspertlar guruhi, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, Yoshlar parlamenti aʼzolari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirokida Senatning navbatdagi yalpi majlisiga kiritilayotgan bir qator masalalar muhokama qilindi.

Senat qoʻmitasida

Jumladan, “Maʼmuriy islohotlar doirasida taʼlim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va

qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun dastlabki tarzda koʻrib chiqildi.

Qayd etilganidek, yurtimizda taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasida litsenziyalash va ruxsat berish

tartib-taomillarini liberallashtirish hamda institutsional isloh qilish boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shunga qaramay ayrim nodavlat taʼlim tashkilotlari tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan oʻquv reja va dasturlar, darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari zamon talabiga javob bermasligi, hujjatlar ekspertizadan

oʻtkazilmagani kabi holatlar kuzatilmoqda.

Bu qonun esa oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar, maktabgacha va maktab taʼlimi sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga hamda davlat va nodavlat taʼlim tashkilotlari tomonidan koʻrsatilayotgan taʼlim xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda “Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan kasaba uyushmalari tashkilotlarini hisobga qoʻyish tartibi belgilanayotganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimchalar va oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida”gi qonun

haqida ham soʻz yuritildi.

Taʼkidlanganidek, mazkur qonunning qabul qilinishi yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan kasaba uyushmalari boʻlinmalari va boshlangʻich kasaba uyushmalari tashkilotlarini roʻyxatga va hisobga olish yagona organ orqali amalga oshirilishini va ular tomonidan shartnomaviy-huquqiy munosabatga kirishilganda yuzaga keladigan majburiyatlar boʻyicha javobgarlikni aniq belgilash imkonini beradi.

Majlis yakunida koʻrilgan masalalar yuzasidan Senat qoʻmitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

XIZMAT SIZNI QONIQTIRADIMI?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi tomonidan “Aholiga madaniy xizmat koʻrsatish darajasini yanada yaxshilash boʻyicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda deputatlik nazorati” mavzuida seminar oʻtkazildi.

Seminar

Unda senatorlar, mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari, ekspertlar, mahalliy Kengashlar deputatlari hamda Yoshlar parlamenti aʼzolari qatnashdi.

Seminar mahalliy Kengashlar deputatlarining soha qonunchiligidagi yangilik hamda oʻzgarishlar boʻyicha nazariy bilimini va amaliy koʻnikmalarini oshirish, aholiga madaniy xizmat koʻrsatish yuzasidan belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosi jarayonida deputatlik nazoratini olib borish masalalariga bagʻishlandi.

Tadbirda Madaniyat vazirligi hamda uning respublika tashkilotlaridagi masʼullarning mavzuga doir maʼruzalari, senatorlar, ekspertlar va Yoshlar parlamenti aʼzolarining fikr-mulohazalari ham eshitildi.

Taʼkidlanganidek, Madaniyat vazirligi tomonidan aholiga madaniy xizmat koʻrsatish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Masalan, oʻtgan yilda mamlakat boʻylab 17 mingdan ortiq konsert-tomoshga tadbirlari tashkil etilib, 10 millionga yaqin aholi qamrab olingan. Tanqili sanʼatkorlar, davlat teatrlari, sirk va dorbozlik guruhlari hamda ijodiy jamoalar ishtirokida 208 ta shahar va tumanda 256 ta teatrlashtirilgan tomoshalar namoyish etilgan.

Ashula va raqs ansambllari ishtirokida yurtimiz olis hududlaridagi aholi uchun 32 ta konsert-tomoshga tadbiri oʻtkazilgan. Respublika boʻylab 110 ta “madaniyat kunlari” tadbiri tashkil qilingan, milliy ansambl va simfonik orkestrlarning hududlarga 20 ta gastrol safari uyushtirilgan.

Shuningdek, “Madaniyat karvoni” loyihasi doirasida 14 ta madaniy-maʼrifiy hamda boshqa tadbirlar oʻtkazilgan.

Seminarda aholiga madaniy xizmat koʻrsatish yuzasidan belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi deputatlar tomonidan nazorat qilib borilishi muhimligi ham alohida taʼkidlab oʻtildi.

Oʻz navbatida, senatorlar tomonidan “Aholiga madaniy xizmat koʻrsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident qarorining hududlardagi ijrosini nazorat qilish hamda bu boʻyicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan masʼul rahbarlar axborotini mahalliy Kengashlar sessiyalarida eshitib borish, muammoli masalalar boʻyicha Senat qoʻmitasiga takliflar kiritish, deputatlik soʻrovlarini yuborish yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

Shuningdek, aholiga madaniy xizmat koʻrsatuvchi muassasalar moddiy-texnika bazasi holatini oʻrganish, olis va chekka hududlardagi aholi orasiga kirib borish hamda ularni eng sara sanʼat asarlaridan bahramand etish muhim masala ekanligi taʼkidlandi.

“Xalq soʻzi”.

TAʼLIMDAGI MUVAFFAQIYATLI ISLOHOTLAR — YUQORI NATIJALAR POYDEVORI

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan “Muvaffaqiyatli islohotlar — yuqori natijalar poydevori” mavzuida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Unda Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi mutasaddilari, xalqaro tashkilotlarning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi rahbarlari, Singapur taʼlim vazirligi, ushbu mamlakatning “Marshall Cavendish Education”, “Times Publishing Ltd” kabi tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi Saidra Mirziyoyeva yurtimizda taraqqiyotning muhim sharti sifatida taʼlim sohasini tubdan isloh etish, unga jahonning eng ilgʻor tajribalarini joriy qilish, oʻqituvchilarning mavqei va obroʻsini koʻtarish, ustoz-pedagoglarning kasb mahoratini doimiy oshirib borish orqali taʼlim sifati va mazmunini yuksaltirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini taʼkidladi.

Taʼlim sifati baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlar natijalariga koʻra Oʻzbekiston taʼlimida erishilgan yutuqlar bilan birga kelgusida eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan jihatlari ham mavjud.

Shu oʻrinda mazkur xalqaro tashkilot tomonidan Oʻzbekistonda taʼlim sifati oshirish, pedagoglarning salohiyatini koʻtarish uchun alohida 3 million dollarga teng grant mablagʻlari ajratilishini taʼkidlash joiz.

Oʻquvchilarda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlash, bilimni hayotiy vaziyatlarda qoʻllash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, talqin qilish, nostaadlar vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarga yechim topish koʻnikmalarini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Mazkur koʻnikmalar oʻquvchilarning mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Oʻz navbatida, oʻqituvchilarning oʻqitish metodikalarini rivojlantirish, shuningdek, oʻquvchilarni mulohaza yuritishga undash, ularga oʻylashni talab qiladigan, aniq yechish usullari boʻlmagan va bilimlarini yangi vaziyatlarda qoʻllash talab qilindigan masalalar berish, muammolarni turli xil kontekstlarda bayon etish, mustaqil oʻrganish metodikalarini rivojlantirish masalasi tobora dolzarb hisoblanadi.

Tadbir davomida Singapur tajribasi asosida maktab rahbarlari va oʻqituvchilar malakasini oshirish, ularni kasbiy rivojlantirishga doir ilgʻor tajribalar bilan

almashish, oʻquvchilar bilimi va koʻnikmalarini baholash hamda rivojlantirishda sunʼiy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish, taʼlimni raqamlashtirish boʻyicha soha mutaxassislarining mavjud bilimlarini yanada oshirish nazarda tutilgan.

Singapur taʼlimiga oid nufuzli tadqiqotlar natijalariga koʻra, dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri boʻlib, taʼlimga sarmoya kiritish, inson kapitalini rivojlantirishga eʼtibor qaratish orqali mamlakat taraqqiyotiga erishgan davlat sifatida eʼtirof etiladi.

— Oʻzbekiston Singapurning muhim hamkorlaridan sanaladi, — dedi “Times Publishing Ltd” tashkiloti rahbari Peng Yim Syu. — Yangi loyiha mamlakatlarimiz oʻrtasida taʼlim sohasida birgalikdagi saʼy-harakatlar oʻqituvchilar bilimini yanada kengaytirish, oʻquv jarayoniga oid dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan mamlakatdagi maktab direktorlari va oʻqituvchilar malakasini oshirish, maktablar oʻquv dasturini takomillashtirish hamda unga raqamli texnologiyalarni joriy qilish boʻyicha Singapurning “Marshall Cavendish Education” tashkiloti bilan aloqalar oʻrnatilgan.

Bunda Oʻzbekistonning xalqaro tadqiqotlardagi natijalari tahlillarini chuqurlashtirish, fanlararo oʻzaro integratsiyani kuchaytirish orqali taʼlim sifati oshirish, Singapur tajribasi asosida maktab rahbarlari va pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish boʻyicha treninglar tashkil etish, mazkur yoʻnalishda tajriba almashish, oʻquvchilarning taʼlim olishlarini yaxshilash, zarur hayotiy koʻnikmalarini rivojlantirish hamda ularning fanlardan egallagan bilimlarini baholashda sunʼiy intellektidan foydalanish boʻyicha treninglar uyushtirish nazarda tutilgan.

Konferensiyaning mantiqiy va uzviy

koʻra, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qayta koʻrib chiqish uchun sudga murojaat qilish vakolati ishda ishtirok etuvchi shaxslarga taalluqli boʻlib, faqatgina ular tomonidan (apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida) shikoyatlar berilishi belgilangan. Ammo ishda ishtirok etayotgan shaxsda sud qarorini koʻrib chiqishga qiziqish yoʻqolishi yoki jismoniy shaxs vafot etishi va boshqa holatlar boʻlishi mumkin. Ayni chogʻda tomonlar har doim ham sud qarorini bekor qilishdan manfaatdor boʻlavermaydi.

Axir qonunchiligimizda qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini davlat manfaatlarini koʻzlab qayta koʻrib chiqish vakolatiga ega boʻlgan protsessual shaxs boʻlmaganidan keyin ushbu sud hujjatlarini qayta koʻrib chiqish deyarli imkonsiz boʻlib qolaveradi-ku. Bunday vaziyatda qonuniylik va huquq-tartibotni taʼminlovchi, davlat manfaatlarini himoya qiluvchi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaatini mustaqil ravishda himoya qila oladigan shaxs faqat prokuror boʻlishi mumkin.

Koʻrinib turibdiki, maʼnaviy zararni undirish jarayoni bilan bogʻliq muayyan huquqiy boʻshliqlar mavjud. Bu esa huquqiy asosni zamon talablari doirasida takomillashtirishni taqozo etadi. Aniq aytganda, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida nomi keltirib oʻtilgan qarorini qayta koʻrib chiqish va takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ana shunda maʼnaviy zararni undirish jarayoni bilan bogʻliq bu kabi salbiy holatlar bartaraf qilindi.

Barno UMAROVA,
Oʻzbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi boshqarmasi boshligʻi.

FRAKSIYALAR HAYOTI

OʻzLiDeP

Mazkur haftada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida Oʻzbekiston Respublikasi



Davlat budjetining va davlat maqsadli jamgʻarmalari budjetlarining 2023-yildagi hamda 2024-yilning birinchi choragidagi ijrosi toʻgʻrisidagi hisobot koʻrib chiqilgandi.

Muhokamada Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzosi **Doniyor Gʻaniyev** qish mavsumida tabiiy gaz bilan taʼminlanmagan hududlarda elektr energiyasi uchun belgilangan “ijtimoiy norma” (aholi tomonidan sotib olishda qoʻllaniladigan imtiyozli tarif) miqdorini oshirish masalasini koʻtardi.

“Tabiiy gaz bilan taʼminlanmagan ayrim hududlarda aholi xonadonlarni isitishda elektr energiyasidan koʻproq foydalanishiga toʻgʻri keladi. Bu notoʻgʻri, lekin ularning boshqa tanlovi yoʻqligidan ular elektrdan asosiy isitish vositasi sifatida foydalanayotgan boʻlishi mumkin. Shu bois bunday toifadagi fuqarolarga qish mavsumida “ijtimoiy norma” imtiyozlari miqdorini oshirish lozim”, dedi deputat.

“Milliy tiklanish” DP

Sir emaski, yozgi taʼtilning boshlanishi bilan yurtimizda bolajonlar uchun istirohat bogʻlari va parklar mavsumi ochiq, deb eʼlon qilinadi.

Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzosi **Umida Rahmonova** parklardagi attrakslonlarning xavfsizligi va sifati nazoratini kuchaytirish zarurligini qayd etar ekan, ayrim hollarda park ishchi-xodimlari bolalardan tashkil topayotganini tanqid ostiga oldi.

“Attraksiyon nazorati taʼtil paytida ham bolalarga topshirilmasligi kerak. Nazoratchi, albatta, texnik qurilma va xavfsizlik boʻyicha malakaga ega boʻlishi zarur. Texnik koʻrik nomigagina emas, balki inson hayoti xavf ostida qolmasligi uchun kafolati oʻtkazilishi lozim”, dedi deputat.

“Adolat” SDP

Ayni paytda yurtimizning barcha hududida “Yoshlar oyligi” doirasida turli tadbirlar tashkil



etilmoqda. Qonunchilik palatasidagi Yoshlar komissiyasi va Parlament axborot markazi tashabbusi bilan “Parlament bilimdoni” tanlovi eʼlon qilingani yoshlar uchun oʻz bilimini sinash masalasida muhim platforma boʻldi. Tanlov uchun bosqichdan iborat boʻlib, uning birinchi va ikkinchi bosqichlari test shaklida “@Parlament_bilimdoni_bot” maxsus boti orqali savollarga javob berish tarzida oʻtkaziladi. Uchinchi bosqich esa ogʻzaki savol-javob shaklida tashkil etiladi.

Oʻzbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzosi, Yoshlar masalalari boʻyicha komissiya raisi **Muhammadjon Valiyev** tanlovning ahamiyati va maqsadiga toʻxtalib, oʻz fikrlarini bildirdi.

“Mazkur tanlov yoshlarimizning siyosiy-huquqiy bilimini sinovdan oʻtkazishga, oʻz tengdoshlari bilan fikrlashishga imkon yaratadi. Yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashni yanada jadallashtirish gʻoyasini ilgari surib kelayotgan partiyamiz yoshlari ushbu tanlovda faol ishtirok etishiga umid qilaman”, dedi deputat.

OʻzXDP

Qonunchilik palatasining yaqinda boʻlib oʻtgan yalpi majlisida deputatlar tomonidan bolalarni zoʻravonlikning barcha shakldan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqilib, bir ovozdan qabul qilingan edi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzosi **Shohista Turgʻunova** muhokamada soʻz olib, fraksiyaning pozitsiyasini bildirdi.

“Mazkur hujjatdagi normalar partiyamiz elektorati boʻlmish koʻp bolali oilalar, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum boʻlgan bolalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, uni toʻla qoʻllab-quvvatladik. Partiyamiz faollari ushbu qonunning joylardagi ijrosi nazoratiga salmoqli hissa qoʻshishiga umid qilaman”, dedi deputat.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi

Joriy haftada Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada koʻpaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtgandi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi aʼzosi **Nosirjon Aminov** bunga oʻz munosabatini bildirib, yigʻilishda ekoturizmni rivojlantirish boʻyicha ilgari surilgan tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashini taʼkidladi.

“Oʻzbekiston ekotizimi rang-barangligi bilan mashhur, koʻllar, togʻlar va adirlilarga boy mamlakat. Ekoturizmni rivojlantirish ushbu noyob tabiiy maskanlarni va bioxilmaxillikni asrab-avaylashga xizmat qiladi. Yigʻilishda oʻrinli tanqid boʻldi: mamlakatimizda tabiiy koʻllar atrofidagi turizm imkoniyatlari ishga solinmayapti. Ekopartiya faollari joylarda bu borada yechimini kutayotgan masalalarni oʻrganishda va maqbul choralarni taklif etishda jonbozlik koʻrsatishi lozim”, dedi deputat.

“Xalq soʻzi”.



Nuqtai nazar

Hozirgi murakkab geosiyosiy va iqtisodiy vaziyatda turizm kabi yangi ish o'rni yaratadigan, investitsiya va eksportni ko'paytiradigan sohalarni qo'llab-quvvatlashni davrning o'zi taqozo etmoqda. Binobarin, mamlakatimizda turizm sohasida hali ishga solinmagan salohiyat bor. Bu jihatdan Islom hamkorlik tashkiloti Turizm kengashiga raislik qilish vakolati O'zbekistonga o'tgani ham katta imkoniyat yaratadi. Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor masalalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida shu kabi dolzarb masalalar keng muhokama qilindi.

O'ZBEKISTON – SAYYOHLAR UCHUN
ENG JOZIBADOR MAMLAKAT

Unda Prezidentimiz qayd etganidek, o'tgan yili Samarqandda uyushtirilgan Global turizm investitsiya forumida 2,3 milliard dollarlik kelishuvlarga erishilgan edi. Lekin ayrim loyihalar ijrosi sust ketmoqda. Shu bilan birga, ishlar to'g'ri tashkil etilgan hududlarda natija bor. Masalan, xorijiy investorlar Shahrisabz tumanidagi G'elon va Sarchashma qishloqlari orasida 3 ming gektarlik tog'-chang'i kompleksini tashkil qilish, Miraki qishlog'ida turizm zonasini barpo etish ishlarini boshlab yuborgan.

Mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan yili yurtimizga kelgan xorijiy sayyohlar soni salkam 7 million nafarni tashkil qildi. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturi doirasidagi mahalliy turistlar oqimi ham yil sayin kengayib boryapti. Bu esa xalqaro turizm bozorida milliy sayyohlik salohiyatini yuksaltirish, xalqaro yarmarkalarda qatnashish tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni mamnuniyat bilan aytish joizki, milliy sayyohlik salohiyati poytaxtimizda har yili o'tkazilayotgan xalqaro turizm yarmakalaridan tashqari boshqa qator davlatlarda ham targ'ib qilinmoqda.

Milliy turizm brendi Turkiyaning Istanbul, Qozog'istonning Olmaota, Yaponiyaning Tokio, Buyuk Britaniyaning London, Ispaniyaning Madrid, Germaniyaning Berlin, Rossiyaning Moskva, Ozarbayjonning Boku, BAAning Dubay, Janubiy Koreyaning Seul, Malayziyaning Kuala-Lumpur, Fransiyaning Parij va Italiyaning Rim shaharlaridagi xalqaro turizm ko'rgazmalarida muvaffaqiyatli ishtirok etayotgani quvonarli, albatta.

Turizm tez rivojlanayotgan davlatlar ro'yxatida 4-o'ringandir

Saudiya Arabistonining ommabop "Sado" gazetasi saytida "O'zbekiston mamlakatni jahon sayyohlik xaritasiga kiritish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda" sarlavhali maqola berildi. Nashrning ma'lum qilishicha, sayyohlarning O'zbekistonda o'rtacha bo'lish muddati 4-5 kunga to'g'ri kelmoqda. Bu 2019-yildagiga (2-3 kun) nisbatan 1,5 barobarga oshgan. 2017-yilda har bir chet ellik sayyoh o'rtacha 197 dollar sarflagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 400 dollarga yetdi. 2023-yilning 9 oyi davomida turizm sohasidan olingan daromad miqdori esa 1,2 milliard dollarni tashkil etdi. "Butunjahon sayyohlik tashkiloti tomonidan e'lon qilingan turizm sohasi



eng tez rivojlanayotgan 20 ta davlat ro'yxatida O'zbekiston to'rtinchi o'rinda qayd etildi", deb yozadi ushbu nashr vakili.

Ta'kidlash joizki, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) 2023-yilda Shahrisabzga ushbu tashkilotning turizm poytaxti maqomini berdi. Shu munosabat bilan Shahrisabz shahrida 2024-yilda IHTga a'zo davlatlar hamkorligida xalqaro forum bo'lib o'tdi.

Yana bir muhim voqea: Islom hamkorlik tashkiloti Xiva shahri 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti", deb e'lon qildi. Yoki Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqandda o'tkazilgan sammitida 2023-yil "Turizmni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi.

Albatta, yuqorida qayd etib o'tilgan tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat turizm sohasi rivojlanishiga, balki mamlakatimizning jahon hamjamiyatida obro'si oshishiga ham xizmat qilmoqda.

1 million ish o'rni ochiladi

2023-yilda Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining XXV sessiyasi Samarqand shahrida o'tkazildi. Yuqori darajadagi tadbir, ya'ni BMT oilasiga kiruvchi tashkilot Bosh assambleyasining O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakatimiz uchun tarixiy voqeeliklardan bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimida ishtirok etib, global sayyohlik tashkilotining 140 dan ziyod mamlakatlar vakillari kelgan tadbirida sohani yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

O'zbekiston yetakchisi turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri ekanini, O'zbekistonda ham mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha keng

ko'lamli va ortga qaytmas islohotlar doirasida ushbu sohani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganiga urg'u berdi. Xususan, keyingi yillarda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etilganini, mamlakatimizdagi mehmonxona o'rinlari soni 140 mingtaga yetkazilib, 70 ta yangi sayyohlik marshruti ochilganligini, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshlaganligini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston rahbari turizmni 2030-yilgacha kompleks rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan



strategiyada zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga, katta shahar va sayyohlar ko'p boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasteri yo'lga qo'yilishi, "Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturi doirasida turistlarni o'ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5 mingtaga yetkazilib, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinishi, 20 ta me'moriy yodgorlikda "Ochiq osmon ostidagi muzey"lar tashkil qilinishini qayd etdi.

Shu bilan birga, ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar soni hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshirilishi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish masalalari diqqat markazida bo'lishi, turizm yo'nalishlarini rivojlantirish hisobidan kelgusida kamida 1 millionta yangi ish joyi yaratish rejalashtirilgani xususida ham to'xtalib o'tdi.

Mustahkam huquqiy asos yaratilmoqda

Davlatimiz rahbari tomonidan xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish taklif etilganidan ko'pchilik

xabardor. Shu ma'noda aytish joizki, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbdur. Bu boradagi amaliy qadamlar sifatida Butunjahon turizm tashkiloti doirasida "Yashil" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis qilish, shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamkorligida Global "yashil" turizm standartlari laboratoriyasini yaratish

Aqchako'l turistik klasteri tashkil etiladi

Shu kunlarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Qoraqalpog'iston turizm boshqarmasi va Xo'jayli tumani hokimligi bilan hamkorlikda Xo'jayli "Mizdakxon — muqaddas va sirli maskan" mavzuida turizm festivalini tashkil etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Festival doirasida uchta xalqaro tashkilot va 7 ta xorijiy davlatdan vakillar ishtirok etishi rejalashtirilgan. Ushbu festivalni o'tkazishdan asosiy maqsad — xorijlik hamkorlar orasida Qoraqalpog'iston Respublikasini, shu jumladan, Xo'jayli tumanining turizm salohiyatini targ'ib qilishni jadallashtirishdan iborat.

Sohaga ilmiy tadqiqotlarni keng jalb qilish maqsadida Turizm qo'mitasi, uning tizim tashkilotlari bilan hamkorlikda ushbu tumandagi soha bo'yicha eng muammoli bo'lgan 28 ta ilmiy tadqiqotning namunaviy mavzulari ro'yxati shakllantirildi.

Ayni paytda professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar tomonidan ushbu mavzular bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Rivojlangan davlatlarning tajribasi shundan dalolat beradiki, klasterlar iqtisodiyotning yuqori samaradorlikka erishishiga imkon yaratadi, klasterlarni shakllantirish mamlakatda mavjud bo'lgan turizm resurslari hamda afzalliklaridan yanada to'liqroq foydalanishga imkon yaratadi. Har qanday hudud doirasida turizm klasterining shakllantirilishi soha taraqqiyotiga oid muammolar yechimini topishning ta'sirchan va o'ta zarur usuli hisoblanadi. Shu maqsadda universitet jamoasi tomonidan Ellikqal'a tumanida Aqchako'l turistik rekreatsiya-sog'lomlashtirish klasterini tashkil etish taklifi berildi.

O'zbekiston dunyo sayyohlari uchun eng jozibador mamlakatga aylanmoqda. Bu bir jihatdan yurtimizda turizm taraqqiyotiga katta e'tibor qaratilayotgani natijasi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatimiz azaldan dunyo tamaddunining xazinasi bo'lgan tarixiy obidalariga boylig, xalqimizning bag'rikeng va mehmondo'stligi tufaylidir. Zotan, dunyoning diyorimizga intilayotgani biz barpo etayotgan yangi O'zbekistonning istiqbolli nurafshon ekanidan dalolat berib turibdi.

"Ipak yo'li" brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun UNWTO maxsus xalqaro mukofotini ta'sis etish tashabbusi bildirildi. Ushbu rejani amalga oshirish bilan Samarqandda ochilgan "Ipak yo'lida turizm" tematik ofisi faol shug'ullanadi. Global mediakampusni ta'sis qilish va uning forumlarini har ikki yilda bir marta Bosh assambleya sessiyalari doirasida o'tkazish muhimligiga e'tibor qaratildi. Birinchi mediakampusni O'zbekistonda qabul qilishga tayyorlik bildirildi.

2024-yilning 12-yanvarida "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilingani ham sohaga e'tibor yuksalib borayotganidan dalolat beradi. Xuddi shu kunning o'zida Prezidentimizning "Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyoti o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingani ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlab turibdi.

Aqchako'l turistik klasteri tashkil etiladi

Shu kunlarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Qoraqalpog'iston turizm boshqarmasi va Xo'jayli tumani hokimligi bilan hamkorlikda Xo'jayli "Mizdakxon — muqaddas va sirli maskan" mavzuida turizm festivalini tashkil etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Festival doirasida uchta xalqaro tashkilot va 7 ta xorijiy davlatdan vakillar ishtirok etishi rejalashtirilgan. Ushbu festivalni o'tkazishdan asosiy maqsad — xorijlik hamkorlar orasida Qoraqalpog'iston Respublikasini, shu jumladan, Xo'jayli tumanining turizm salohiyatini targ'ib qilishni jadallashtirishdan iborat.

Sohaga ilmiy tadqiqotlarni keng jalb qilish maqsadida Turizm qo'mitasi, uning tizim tashkilotlari bilan hamkorlikda ushbu tumandagi soha bo'yicha eng muammoli bo'lgan 28 ta ilmiy tadqiqotning namunaviy mavzulari ro'yxati shakllantirildi.

Ayni paytda professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar tomonidan ushbu mavzular bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Rivojlangan davlatlarning tajribasi shundan dalolat beradiki, klasterlar iqtisodiyotning yuqori samaradorlikka erishishiga imkon yaratadi, klasterlarni shakllantirish mamlakatda mavjud bo'lgan turizm resurslari hamda afzalliklaridan yanada to'liqroq foydalanishga imkon yaratadi. Har qanday hudud doirasida turizm klasterining shakllantirilishi soha taraqqiyotiga oid muammolar yechimini topishning ta'sirchan va o'ta zarur usuli hisoblanadi. Shu maqsadda universitet jamoasi tomonidan Ellikqal'a tumanida Aqchako'l turistik rekreatsiya-sog'lomlashtirish klasterini tashkil etish taklifi berildi.

Alisher ESHTAYEV,

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Turizm kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor.

Qozog'iston "Tolibon"ni
terror tashkilotlari
ro'yxatidan chiqardi

Qozog'iston "Tolibon" rejimini terrorchilar ro'yxatidan chiqardi.

Bu haqda ma'lum qilgan Prezident Qosim-Jomart Toqayev bu Afg'oniston hukumati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilganini bildirgan.

Eslatib o'tamiz, dunyoning ko'plab davlatlari qatori "Tolibon" Qozog'iston Oliy sudining 2005-yil 15-martdagi qarori bilan terror tashkiloti deb topilgan hamda mamlakat hududida faoliyati taqiqlangan edi.

Toqayevning so'zlariga ko'ra, hozirda strategik vazifalardan biri —

Afg'onistonni mintaqalararo aloqalarga faol jalb qilishdir. "Zamonaviy Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning muhimligi va bu rejim uzoq muddatli omil ekanini anglashdan kelib chiqqan holda, Qozog'iston "Tolibon" rejimini terror ro'yxatidan chiqardi", deya ta'kidlagan u.

Noqonuniy migratsiyaga
qarshi choralar

AQSH Prezidenti Jo Bayden Meksikadan o'z mamlakati hududiga noqonuniy o'tayotgan muhojirlar uchun boshpana olish tartib-qoidalarini kuchaytirish haqida topshiriq berdi.

Bu bo'yicha 4-iyun kuni chiqarilgan farmon bunday kishilarning AQSHdan badarga qilinishini osonlashtiradi. Hujjat, agar noqonuniy muhojirlar soni kuniga 2,5 mingdan oshsa, amerikalik rasmiylarga ularni tezlik bilan deportatsiya qilish huquqini beradi.

Qolaversa, bu mazkur chora-tadbirlar zudlik bilan amalga oshirilishi mumkinligini anglatadi, chunki hozirning o'zida Meksika — AQSH chegarasidan qonunga zid ravishda o'tayotgan muhojirlarning o'rtacha soni kuniga 3,7 mingdan oshmoqda.

Bosh vazir partiyasi
yana g'olib

Bosh vazir Narendra Modining Hindiston xalq partiyasi ("Bharatiya Janata parti") yetakchiligidagi Milliy demokratik alyans saylovlaridan so'ng mamlakat parlamentini quyi palatasidagi o'rinlarning yarmidan ko'pini qo'lga kiritdi.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Modi koalitsiyasi parlament quyi palatasidagi mavjud 543 o'rindan 290 ga yaqinini egallagan. Pochta orqali berilgan ovozlari hozirda ko'rib chiqilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, muxolifat koalitsiyasi taxminan 220 o'ranga ega bo'lishi mumkin.

Biroq ekspertlar ta'kidlaganidek, Modi koalitsiyasi parlamentda rejalashtirilgan 400 o'rinini olmagani va hatto besh yil avvalgi natijani takrorlamasligi mumkin bo'lsa-da, allaqachon g'alaba nashidasini summoqda. Ya'ni Narendra Modi endi ketma-ket uchinchi marta Bosh vazir lavozimini egallashi mumkin bo'ladi.

Isroil o't ochishni
to'xtatishga rozi, ammo...

Isroil Bosh vaziri Binyamin Netanyaxu AQSH Prezidenti Jo Baydenning G'azo sektorida o't ochishni to'xtatish rejasiga munosabat bildirdi. Ya'ni Isroil hukumati rahbari garovga olingan isroilliklarni ozod qilish uchun G'azo sektoridagi jangovar harakatlarni olti haftaga to'xtatishga tayyorligini aytdi.

"Times of Israel" nashrida aniqlik kiritilishicha, B. Netanyaxu J. Baydenning mojaroni hal qilish rejasiga munosabat bildirdi. Isroil Bosh vaziri aytishicha, AQSH Prezidentining rejasiga "bo'shliqlar" talaygina. "Bayden taqdim etgan reja to'liq emas. Garovga olinganlarni qaytarish uchun urush to'xtaydi, keyin yana gaplashamiz. AQSH Prezidenti ommaga taqdim etmagan boshqa tafsilotlar ham bor", deya qo'shimcha qildi Bosh vazir.

AQSH Prezidenti Jo Bayden 31-may kuni G'azo sektorida o't ochishni to'xtatish va isroillik garovga olinganlarni ozod qilish bo'yicha yangi rejani taqdim etdi. Reja deeskalatsiyaning uch bosqichli, asosan, doimiy sulh va Isroilning Falastin hududidan chiqib ketishini o'z ichiga oladi.

Rejaga ko'ra, birinchi bosqich olti hafta davom etishi kerak. Unda to'liq va yakuniy o't ochishni to'xtatish, Isroil qo'shinlarining G'azo sektoridagi aholi punktlarini olib chiqib ketilishi va yuzlab falastinlik mahbuslarni ozod qilish evaziga bir qator isroillik garovga olinganlarni qaytarish kiradi. Ikkinchi bosqich harbiy harakatlarni yakuniy to'xtatish va Isroil qo'shinlarini G'azo sektoridan olib chiqib ketishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu bosqichda qolgan barcha garovga olinganlar Isroilga qaytarilishi kerak. Nihoyat, uchinchi bosqichda AQSH va xalqaro hamjamiyat ko'lamida mintaqani keng ko'lamli qayta qurish rejasini boshlanadi, bu esa 3 — 5 yil davom etadi.

Abduvali SOYIBNAZAROV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

"MUNDIAL — 2026" SARI NAVBATDAGI MUHIM QADAM

Kuni kecha poytaxtimizdagi "Bunyodkor" stadionida 2026-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionati Osiyo mintaqasi 2-saralash bosqichi doirasida navbatdagi tur o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston va Turkmaniston milliy terma jamoalari bahslashdi. Murosasiz kechgan uchrashuvda o'zbekistonlik futbolchilar 3:1 hisobida g'alaba qozonib, "Mundial — 2026" sari navbatdagi muhim qadamni tashladi.

Muxbirimiz futbolchilarimizning quvonch va hayajonga to'la dil so'zlarini, musobaqa haqidagi fikr-mulohazalarini yozib oldi.

Intervyu

Jaloliddin MASHARIPOV,
O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi:

— O'yin oldidan ijtimoiy tarmoqlar va yon-atrofimizdagilardan "Jamoamiz Turkmanistonni bemaolof yutadi, ko'rishga kirib nima qilamiz, allaqachon ma'lum hammasi", degan gaplarni eshitdik. Bu gapda ham jon bor, biroq bizning xayolimizga Turkmanistonni yutib bo'ldik, degan



o'y kelgani yo'q, qardosh jamoani hurmat qilgan holda to'p surdik.

O'yinning 1-bo'limi ancha og'ir kechdi, Turkmaniston terma jamoasi kutganimizdan yaxshi o'ynadi. Ammo ustunlik baribir biz tomonda bo'ldi va g'oliblikni qo'lga kiritdik. Bunga erishishimizda, albatta, jamoamiz, yaqinlarimiz va yurtdoshlarimizning g'alabaga bo'lgan ishonchi muhim o'rin tutdi.

Shukrki, so'nggi paytlarda nafaqat o'zimizda, balki xorijda ham "O'zbek futbol" degan tushuncha yanada keng quloch yoza boshladi. O'zbek futbolchilari jahonning bir qancha tanilgan klublarida to'p surib, mahoratini oshirmoqda, pirovardida bu terma jamoa o'yinlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda futbolga berilayotgan e'tibor zamirida yoshlarga g'amxo'rlik, ishonch hissi mujassam. Istardikki, futbol maydonlarimiz yanada ko'paysin, yurtdoshlarimiz farzandi futbolga boraman desa qarshilik qilmasin, qo'llab-quvvatlasin, muxlislarimiz hamisha stadionlarimizni to'dirib tursin. Bu bizni quvontiradi, shuningdek, zimmamizga katta mas'uliyat ham yuklaydi.

Eldor SHOMURODOV,
O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi:



— O'tgan oy men to'p surayotgan Italiya chempionatida Milan — Kalyari o'yinida "Xalqaro onalar kunini" munosabati bilan ajoyib g'oya ilgari surildi va biz onalarimiz ismi yozilgan futbolkalarda o'yinga tushdik. Ochiqini mas'uliyat va ishonchini ikki

aytsam, bu menda hissa oshirdi.

Mana shunday hislar terma jamoamizda o'ynagan paytlarimda o'n baravar oshadi, desam,

mubolag'a emas. Chunki egnimizda milliy jamoamiz libosi, ortimizda esa g'alabamizni umid bilan kutayotgan xalqimiz bor.

Bilasizmi, bizni eng ko'p quvontiradigan narsa nima? Alamiy mag'lubiyatga uchraganimizda ham yonimizda turadigan, asosiysi, har qanday holatda ham bizga ishonadigan muxlislarimiz va ularning yorqin munosabatlari. To'g'ri, mag'lubiyat achchiq, odamning qalбини o'rtadi, ruhini tushiradi. Aslida, hayot qonuni shu — ba'zida yengasan, ba'zida esa yutqizasan. Ammo har ikki holatda ham o'zini yo'qotmagan odam chin ma'noda g'olib bo'ladi.

Safimizda umidli yoshlarimiz ko'payayotgani ham jamoa ruhياتiga ijobiy ta'sir o'tkazmoqda. Abduqodir, Abbas kabi jamoadoshlarimiz bildirilgan ishonchimiz oqlashi, ularning qatoriga yana boshqa yoshlarimiz qo'shilihsiga tilakdoshaman.

Keyingi o'yinimiz Eron bilan bo'lib o'tadi. O'yin natijasi haqida "Oldindan bir narsa deyish qiyin"

deb gapni paysalgaga solib o'tirmayman, biz faqat va faqat g'alaba uchun maydonga tushamiz.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

O'zbekiston va Turkiyaning yirik shaharlari o'rtasida haftasiga 90 ta parvoz amalga oshirilmoqda.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542, 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. O'set usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummullig'a qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tabiriyat kompyuter markazida terildi hunda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.50 Topshirildi — 01.35

1 2 3 4 5 6